

Ondin bundan.

Hozirgi vaqtda 8 yuz, 750 so‘m oyliqning maishatga yetmaganligidan bahs qilinub tururg‘a ham xojat yo‘qdir, ul endi yetmaydi!. 2 yuz – 250 so‘mliq moyanalar haqinda so‘z ham bo‘lurg‘a mumkin emasdir.

Yuqorida ko‘rsatilgon moyanalarning kifoya qilmoqlig‘ini ko‘rsatmak, ul qadar osondirki xatto buni birinchi sinf maktab bolalarida hisoblab chiqora olajaqdirlar. O‘rtog‘ina bir xisob bilanda kerak oilali va kerak oilasiz bo‘lsun. Kuniga yuz so‘m xarojat lozimdir. Emdi kuniga yuz so‘m xarojat bo‘lsa, bu oyig‘a uch ming so‘m sarf bo‘lar demakdir. Shunday bo‘lg‘ach sakkiz yuz so‘mdan iborat bo‘lg‘on moyananing tamin etishga qodir emasligini birinchi sinf shogirdlariningda xisoblab chiqora olmoqlarig‘a tajub qilinmaya choqdir, tajub qilmoyturg‘on bir jamiat bo‘lsa avalda: masalaning mana shul jihatini markaziy ijroiya qo‘mitasining anglay olmog‘onlig‘i jihatidir.

Voqean: markaziy qo‘mita 150 yoxud deyluk 550 so‘m moyana bilan o‘zining muasalarida xizmat qilg‘on kishilarni nechuk yashatmakchi bo‘lar ekan?

Yuqorida o‘rta hisob bo‘yinch ko‘rsatilgon xarojatga binoan 850 so‘m sakiz yarim kungagina kifoyat etajak o‘ldig‘indan bir oyning bundan qolg‘on 21 yarim kuni uchun 2150 sumi qaydan olinajakdir?

Yuqorida ko‘rsatilgan xarojat yemak va ichmak uchunginadir; ammo libos kabi xarojatlari uchun yana kerakli miqdorda aqcha lozim bo‘lajakdir. Masalaning bu jihati mo‘jiza va karomat kabi narsalar bilangina xal qilinmasa, ondan oqillarning bunda ish ko‘ra olmoqlari mumkin emasdir.

Bu shundaydir. Buning shunday ekanligini tan qilamizki bilmagan kishi yo‘qdir. Faqat masalaning bundan ham ajabroq nuqtasi bordir. Mana nechuk: 850 so‘m moyana olg‘on moyanasining maishatiga kifoya qilmog‘onliqindan shikoyat etkan kishilarga diqqat qilg‘on bo‘lsangiz alar yoz kunlarida hech bir bayram kunini bog‘ga chiqib tamosha, kayf va safo qilmasdan o‘tkarmadilar. Arabo xarajatlari vaqtning har jihatindan bo‘lg‘on qimmatchilikka qog‘onda, albatta bir necha yuz so‘mlar bo‘lar edi. uylarida yemak va ichmak uchungina 850 so‘mni kifoyat etmaydir deb shikoyat qilg‘on kishilar, ajabo! Ushbu kayf va tamosha uchun sarf qiling‘on pullarni qoydan olurlar edi?

Bir necha vaqtindan beri shahrimizda pivo sotilib turdi. Ushbu vaqtda 850 so‘mdan moyana olaturg‘on eng ko‘b o‘rtoqlar, kunduzgi taomga borg‘on vaqtlarida piva sotaturg‘on butkalariga uchrab to‘qtomasding‘ina o‘ta olmaslar edi. Bu butkalar, pivo ichaturg‘on kishilarning ko‘pligidan tamom shahar do‘konlari kabi ichar uchun navbat kutgan kishilar bilan o‘rolib qolur edi. Butkaning egalari ham pivo toshib ulgura olmaslar edi.

Kishining piva ichmagi ajab emas. Faqat bundan har kun elliq so‘mliq piva ichguchilarning ko‘runub turmoqig‘a ayni tajubga tushuradur. Moyana o‘laroq

oling'on 850 so'm xarojat taminga kifoyat qilmosa, ajabo! Bu pivag'a sarf qilinataturg'on aqchalar qaydin olinadir?

Bular kichik va juz'iy maishatlardir. Faqat shunday bo'lsada, 750 so'm moyana olg'on kishilarning ba'zilari yemak va ichmak uchun boshini toshg'a o'rg'oni xolda boshqalarining kuniga piva ichivugina ellik so'm sarf qilmoqlari, yana diqqatni jalb etajak masalalardandir.

850 so'mg'ina moyana olib shikoyatda bo'lg'on kishilarning orasidan ba'zi shunday xollar ham bo'lar emishki, masalan: bir kun bir necha kishi, oylig' mukofotidan bir narsaolib bir biriga borg'onlar va kayf qilmoqchi bo'lg'onlar. Lekin zoquskalari bo'lmag'on. Bozorg'a borg'onlari ko'shat topolmog'onlar. Zoquska yo'qlig'i o'rtoqlarni mushkul bir xolga tushurgan. Faqat har mushkulning bir chorasi bor degan shekilli, buning ham chorasini topg'onlar. Shundaykim: o'lturg'on uy egasining bir necha adad yoshgina cho'chqa bolalari bor ekan. Mana shulardan birini to'rt ming so'mg'a sotib olg'onlarda kabob qilib ishlarini qila berganlar.

Bunda ham albatta es ketarlik hech bir narsa yo'q. Faqat bizning musulmon o'rtoqlar shunday bir vaziatda qolg'on bo'lsalar, shomdan so'ng mol so'yg'on durustmi, emasmi? Deb qanday dini musulmonlar bilan o'g'roshg'on bo'lurlar edi. lekin mazkur o'rtoqlar haqindan so'ng bo'lsa ham cho'chqa bolasini 4 ming so'mg'a olg'onlar, kitob o'qimishlar, kayf va safo qilishlarida yo'llarini qilurlar.(shu yerdan oxirgi 2 abzatsi ko'rinmagan bitta ikkita harflari ko'rib qolgan.)

Baxlul. Mehnatkashlar tovushi.

1919-yil, 31 uktobr. 117-son.

(G.O.)